



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRINING BUYRUG‘I

№ 151

“31” 08 2022-yil

Qurilish vazirligining ma’muriy-xo‘jalik faoliyatida xarid qilish tartib- taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-apreldagi (O‘RQ-684-sonli) Qonuniga muvofiq, Qurilish vazirligi ma’muriy-xo‘jalik faoliyatida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishni tartibga solish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-apreldagi (O‘RQ-684-sonli) Qonuni bilan davlat xaridlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Qurilish vazirligining ma’muriy-xo‘jalik faoliyatida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlari bo‘yicha Xarid komissiyasining tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xarid komissiyasiga:

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-apreldagi (O‘RQ-684-sonli) Qonuni talablariga qat’iy amal qilish;

xaridlar vazirlikning o‘z oldida turgan vazifalarni hal etishni ta’minlaydigan haqiqiy talablari va ehtiyojlarini samarali qanoatlantirish uchun davlat xaridlarini o‘tkazishning maqsadga muvofiqligi va zarurligi, tovarni (ishni, xizmatni) tanlashning, uning iste’mol xususiyatlari (tavsifi), sifat ko‘rsatkichlarining va qiymatining asoslanganligi hisobga olingan holda, ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish, shu jumladan, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) olishdan ko‘rilgan naf, ularning sifati va qiymati o‘rtasidagi maqbul nisbatni (foydalanish davri xarajatlarini hisobga olgan holda) ta’minlanishi hamda oqilona va tejamkor usulda amalga oshirilishini;

xaridlarni amalga oshirishda affillanganlik to‘g‘risidagi axborotni hamda bo‘lajak xaridlar to‘g‘risidagi e’lonlarni faqat moliyalashtirish manbalari va miqdorlari mavjudligi tasdiqlangan taqdirdagina maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga va ommaviy axborot vositalariga joylashtirishini;

vazirlik faoliyatida zaruriy shart-sharoitlar yaratish bo'yicha oylik va choraklik talabnomalarni shakllantirish;

portalda xaridlarning oylik va choraklik reja-jadvallarini hamda xaridlar o'tkazilishi haqidagi e'lonlarni joylashtirish ishlari amalga oshirishini;

ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholash va tartibga solish hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilgan holda g'oliblarni tanlash;

xarid qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qabul qilinishi jarayonida qatnashishi belgilab qo'yilsin.


4. Ishlar boshqarmasi (A.Hamzayev) hamda Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalari bo'limiga (M.Zagrutdinov) Xarid komissiyasi to'g'risidagi buyruqni Qurilish vazirligi rasmiy saytining ochiq ma'lumotlar saxifasida joylashtirish topshirilsin.

5. Qurilish vazirligining 2020-yil 13-noyabrdagi 313-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Devonxona mudiri (G.Otaboyeva) mazkur buyruqni tarqatish ko'rsatkichi asosida mutasaddi xodimlarga yetkazilishini ta'minlasin.

7. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari J.Arashov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



B.Zakirov

**Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlari bo'yicha
Xarid komissiyasining tarkibi**

Xarid komissiyasi raisi

1. J.Arashov - Vazir o'rinbosari

Xarid komissiyasi a'zolari

2. A.Azizov - Qurilish sohasida iqtisodiy islohotlar boshqarmasi boshlig'i
3. E.Niyazmatov - Qurilish sohasida davlat xaridlari tizimini metodologik ta'minlash va muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i
4. B.Sirlibayev - Markaziy buxgalteriya bosh mutaxassisi
5. A.Hamzayev - Ishlar boshqarmasi boshlig'i
6. M.Zagrutdinov - Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalari bo'limi boshlig'i
7. Lavozimiga ko'ra - Ichki audit va kompayens nazorat bo'limi boshlig'i

Izohlar:

Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu vazifaga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyani bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Komissiya o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda, zaruriy holda, mutahassis jalb qilish huquqiga ega.

Қурилиш вазирлигининг 151-сонли буйруғи
тарқатиш кўрсаткичи

1. А.Азизов
2. Э.Ниязматов
3. Б.Сирлибаев
4. А.Ҳамзаев
5. М.Загрутдинов
6. Ички аудит

Ишлар бошқармаси бошлиғи



А.Ҳамзаев